

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

JOLIMBETOVA SHIRIN ALISHEROVNA

G.DAVLETOVA ASARLARINING LINGVOPOETIK TAHLILI

10.00.03. – Qoraqalpoq tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

NUKUS – 2025

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Jolimbetova Shirin Alisherovna

G.Dauletova asarlarining lingvopoetik tahlili.....3

Жолымбетова Ширин Алишеровна

Лингвопоэтический анализ произведений Г.Даулетовой.....25

Jolimbetova Shirin Alisherovna

Lingvopoetic analiz of the works of G.Dawletova.....51

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....55

**QORAQALPOQ GUMANITAR FANLAR ILMIY-TADQIQOT
INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NUKUS DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

JOLIMBETOVA SHIRIN ALISHEROVNA

G.DAVLETOVA ASARLARINING LINGVOPOETIK TAHLILI

10.00.03. – Qoraqalpoq tili

**FILOLOGIYA FANLARI bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

NUKUS – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4. PhD/Fil4090 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Nukus davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.aknuk.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Najimov Perdebay Aymanovich**
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **O'rinboyeva Dilbar Bozorovna**
filologiya fanlari doktori, professor

Prekeeva Amangul Ansatbaevna
filologiya fanlari nomzodi, docent

Yetakchi tashkilot: **Urganch davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpog' gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/25.08.2021.Fil.137.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025 yil «18» 08 soat 11:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 230100, Nukus shahri, A. Temur ko'chasi, 179 A-uy. Tel.: (99861) 222-85-47; faks: (99861) 222-85-47; e-mail: kk_gumanitar@mail.ru)

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining Fundamental kutubxonasida tanishish mumkin. (16 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 230100, Nukus shahri, A. Temur ko'chasi, 179 A-uy. Tel.: (99861) 222-85-47.

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «01» 08 kuni tarqatildi
(2025 yil «01» 08 da) 2 raqamli restr bayonnomasi).



A.I.ALNIYAZOV
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori, professor

A.M.BEKIMBETOV
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy
kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD) katta ilmiy xodim

M.D.KURBANOV
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o'rinbosari,
filologiya fanlari doktori, docent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida badiiy asarlar tilini antroposentrik yo'nalishda o'rganishda muallifning obyektiv borliqqa munosabati, uni qabul qilishi va anglashini uning qalamiga mansub asarlar orqali aniqlash muhim ahamiyatga ega. Chunki, ijodkorning individual uslubi – yozuvchi yoki shoirning o'zi yashab, ijod etgan davriga xos bo'lgan so'z yordamida fikrni badiiy ifodalashda individual estetik so'z qo'llash tizimi. Badiiy adabiyotda asarlarni, ularning uslubiy o'ziga xos xususiyati va badiiy mazmunning o'zaro ta'siri nuqtai nazaridan o'rganish tilshunoslikning eng asosiy vazifalaridan biri sanaladi.

Jahon tilshunosligida tildan foydalanuvchi subyektning nutqiy mahoratini o'rganishga alohida e'tibor qaratilgan holda, so'zlovchining harakatni, axborotni qabul qilishi, so'zlarni qo'llash va aytish jarayonida verbal belgilar yordamida o'z psixologik holatini ko'rsatadi. Shuningdek, matnga g'oyaviy-badiiy ma'no berishda, qoraqalpoq xalqining milliy badiiy adabiy tiliga xos bo'lgan so'z boyligidan foydalanish mahorati, til birliklarining semantik va monosemantik imkoniyatlaridan foydalanish, lingvopoetik tahlil qilish, muallifning uslubiy jihatdan til birliklariga estetik ta'sir qilish uchun o'ziga xos so'z tanlash usullari haqida so'z yuritilgan.

Badiiy asarlarning ma'naviy va lingvistik xususiyatlarining o'zaro ta'siri masalasi maxsus tadqiqot obyekti bo'lmagan. G.Davletova asarlaridagi poetik individuallik, lingvopoetik xususiyatlar, uning shaxsiy mualliflik uslubi tadqiq qilinishi zarur bo'lgan masalalardan hisoblanadi.

Istiqlol yillarida inson omili va manfaatlarining qadrlanishi, yuqori pog'onaga ko'tarilishi, boshqa sohalardagi kabi ma'naviyatning asosiy o'lchovlaridan biri bo'lgan til boyliklarini yanada chuqurroq o'rganishga keng imkoniyat yaratdi. Jumladan, « ... ona tilimizning davlat va jamiyat hayotidagi ta'siri va mavqeini yanada oshirisha bo'yicha oldimizda juda muhim vazifalar turibdi. Biz xalqimiz taqdiri, kelajagi haqida o'ylar ekanmiz, eng avvalo, millatimizning asosiy qadriyatlarini, milliy urf-odatlarimiz, ona tilimizni ko'z qorachig'idek saqlashimiz zarur»¹. Demak, mana shu vazifalardan kelib chiqib, ayniqsa, til birliklarining poetik vazifasini tilshunoslikning yangi yo'nalishi bo'lgan lingvopoetik jihatdan o'rganish juda muhim. Bunda shoira G.Davletovaning asarlari ma'lum darajada ilmiy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-fevraldagi «Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkillashtirish, boshqarish hamda moliyalashni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2789-sonli Qarori, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-sonli O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili to'g'risida»gi Qarori va 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-sonli «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi qadr-qimmatini va obro'sini tubdan oshirish chora tadbirlari to'g'risidagi» Farmoni, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6048-son

¹ Мирзиёев Ш.М. Миллий ўзлгимиз ва мустақил давлатчилигимиз тимсоли (Президент Шавкат Мирзиёевнинг ўзбек тилига давлат тили мақоми берилганинг ўттиз йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи) // «Халқ сўзи» газетаси. – Т., 2019 йил 22 октябрь. - №218 (7448).

«Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 2019-yil 16-oktabrdagi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Joqarg‘i Kengashi Prezidiumining «Davlat tili to‘g‘risida»gi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Nizomi qabul qilinganligining 30 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishni tashkillashtirish chora tadbirlari bilan bog‘liq 584-son Qarori, 2020-yil 3-noyabrdagi 135-sonli Qoraqalpog‘iston Respublikasi Joqarg‘i Kengashi Prezidiumining «Qoraqalpoq tilining davlat tili sifatidagi obro‘si va o‘rnini yanada orttirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarori, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Joqarg‘i Kengashi Prezidiumining 2021-yil 16-iyuldagi «Qoraqalpoq tilini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari va boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Badiiy asar tilini funksional-uslubiy, semantik-strukturaviy yo‘nalishda o‘rganish va uning o‘ziga xos xususiyatlarini aniqlash masalalari rus olimlari V.Ya.Zadornova, A.A.Lipgart, G.I.Klimovskaya, R.O.Yakobson, Ye.B.Borisova, V.V.Vinogradov, L.V.Boldireva² va boshqa xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan, o‘zbek tilshunosligida: D.Shodiyeva, Sh.G‘.Toshxo‘jayeva, B.Yuldashev, I.Mirzayev, M.Yoqubbekova, B.Sarimsoqov, N.Mahmudov, I.K.Mirzayev³, qoraqalpoq tilshunosligida: Sh.N.Abdinazimov, Z.M.Qazimbetova, D.K.Yerjanova, A.P.Nasirova, J.J.Buxarbayevalarning⁴ tadqiqot ishlarida o‘rganilgan. Qoraqalpoq tilshunosligida nazmiy asarlar lingvopoetikasi shu kungacha kam o‘rganilgan. Shu bois poetik asarlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish tilshunoslikning eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

² Задорнова В.Я. Филологические основы перевода поэтического произведения: Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1976; O‘sha muallif. Восприятие и интерпретация художественного текста. – М.: Высшая школа, 1984; O‘sha muallif. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дис. ... д-ра. филол. наук. – М., 1992; Липгарт А.А. Методы лингвопоэтического исследования. – М., 1997; O‘sha muallif.. Основы лингвопоэтики. – М.: Стеоретип, 2021. – 166 с.; Климовская Г.И. Лингвопоэтика. Учебное пособие. – М.: ФЛИНТА, 2019. – 232 с.; Якобсон Р.О. Поэзия грамматики и грамматика поэзии // Семиотика. – М., 1983; Борисова Е.Б. Перевод как словесно-художественное творчество и как результат научно-филологического анализа текста: Автореф канд. филол. наук. – М., 1989; Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: Высшая школа, 1971; Болдырева Л.В. Социально-исторический вертикальный контекст и проблема понимания литературно-художественного текста (на материале произведений английских писателей): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – М., 1990.

³ Шодиева Д. Мухаммад Юсуф шеърятини лингвопоэтикаси: Филол. фан. ном. дис. ... автореф. – Тошкент, 2007; Тошхужаева Ш.Ф. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. фалс.д-ри. (PhD). ... дис. автореф. – Тошкент, 2017.

⁴ Абдиназимов Ш. Лингвопоэтика. – Тошкент: Yoshlar nashriyot uyi, 2020; Қазымбетова З.М. Ж.Избасқанов шығармаларының лингвопоэтикалық анализі: Филол. илим. филос. д-ры(PhD). ... дис. – Нөкис, 2022; Ержанова Д.К. Ибрайим Юсупов поэмаларининг лингвопоэтик таҳлили. Филол. фан. фалс. д-ри. (PhD). ... дис. автореф. – Нукус, 2021; Nasirova A.P. Qoraqalpoq xalq aytishuvlarining lingvopoetik tahlili: Filol. fan. fals. d-ri. (PhD). ... dis. avtoref. – Nukus, 2024; Buxarbaeva J.J.T. Matmuratov asarlarining lingvopoetikasi. Filol. fan. fals. d-ri. (PhD). ... dis. avtoref. – Nukus, 2024.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining «Hozirgi qoraqalpoq tilshunosligining muhim masalalari» mavzusidagi ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi G.Davletova asarlari tilining lingvopoetik xususiyatlarini, matndagi leksik til birliklarining poetik semantikasini, badiiy-estetik vazifasini aniqlash orqali shoirning poetik individualligini ko'rsatishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

lingvopoetikaning o'rganilishiga, taraqqiyot bosqichlariga e'tibor berish;

G.Davletovanning poetik individualligiga, til birliklaridan foydalanishdagi xususiyatlari, so'z qo'llashdagi o'ziga xos usullar qoraqalpoq xalqining milliy ongi-tuyg'usi, qadriyatlarini bilan bog'liq holda badiiy tasvirlanishi haqida ma'lumot berish;

shoira ijodiyoti tilida so'zlarning shakl va ma'no munosabati bo'yicha turlarining, troplarining badiiy matndagi o'rnini, emotsional-ekspressivligi, estetik ta'sirini aniqlash, lingvopoetik tabiatini o'rganish;

G.Davletova asarlaridagi turg'un so'z birikmalarining lingvopoetik vazifalarini, ularning matn strukturasi joylashuvi orqali yuzaga keladigan ma'no qirralari, lingvoestetik vazifalarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti G.Davletovanning «Sening darding bilan yashayman, ayol» (2001), «Qiz taxtim» (2009), «Tumor qiz» (2012), «Kuzgi to'lg'anishlar» (2012), «Qalbidagi esdalik» (2017), «Guliston» (2020) va h.k. asarlarining lingvopoetik tahlili.

Tadqiqotning predmeti G.Davletova asarlari tilining leksik, uslubiy-semantik poetikasi, poetik individualligi, lingvoslubiy xususiyatlaridan iborat.

Tadqiqotning usullari. Ishda belgilangan nazariy adabiyotlarni o'rganish, ta'rif, qiyosiy, diaxron, bayon etish, semantik-uslubiy, qiyosiy uslubiy usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

G.Davletovanning o'ziga xos poetik ijodi asosida qo'llanilgan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish kabi turlarining estetik ahamiyatini belgilashdagi xususiyatlari ochib berilgan;

G.Davletova asarlaridagi fonetik troplar, leksik birliklar, badiiy tasvirlash vositalarining asarning estetik ahamiyatini belgilashdagi roli, poetik matnni yaratish imkoniyatlari, poetik individuallik tizimida shoira tomonidan til birliklarini qo'llash mahorati o'rganilgan;

qoraqalpoq tilida uslubiy-jihatdan o'ziga xos badiiy tasviriy vositalar, ilmiy-nazariy xulosalari, leksik, nutqiy sinonim va antonimlarning lingvopoetik vazifasi sifatida qo'llanilishi aniqlangan;

shoyiraning lingvopoetik hususiyati sifatida foydalanish mahorati o'rganilgan, shuningdek, frazeologizmlar va naql-maqollarning lingvopoetik jihati asosida nutqni iychamlashtirish, tushunchani obrazli atash, psixologik holatni ifodalash, emotsional-ekspressiv funktsiyalarni bajarishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

G.Davletova asarlari bo'yicha tahlilga tortilgan materiallar qo'yilgan ilmiy muammoni ilmiy tadqiq qilish natijasida keltirilgan ilmiy xulosalar, dalillar va fikrlar hozirgi qoraqalpoq tilshunosligi, shu jumladan, lingvopoetika, lingvokulturologiya, semasiologiya sohalari uchun zarur ilmiy ma'lumotlar keltirilgan;

shoir asarlarining lingvopoetik tahlili natijasida olingan ilmiy xulosalar qoraqalpoq tili leksikologiyasi, frazeologiyasi, lingvokulturologiyasi bo'yicha kelgusi ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda manba bo'lib xizmat qilishi, leksikografiya, kognitiv tilshunoslik, semasiologiya, lingvokulturologiya, lingvofolkloristika kabi fanlarni o'qitishda amaliy jordam berishi har tomonlama dalillangan;

dissertatsiya natijalari G.Davletova asarlari tili bo'yicha bir qator lug'atlar yaratish, qoraqalpoq tili leksikologiyasi, lingvokulturologiya, lingvopoetika sohalari bo'yicha yangi darslik va o'quv qo'llanmalar yaratishdagi amaliy ahamiyati asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ishda qo'llanilgan usullar, ilmiy ma'lumotlarning ishonchli ilmiy manbalardan, misollar shoiraning she'riy satrlaridan, she'riy to'plamidan olinganligi, tahlil va xulosalarning ta'rifi bayon etish, qiyoslash usullari bilan asoslanganligi bilan dalillanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ishda shoira G.Davletova asarlarining tili tahlil qilingan, qoraqalpoq tilshunosligida shoira asarlarining lingvopoetikasi ilk bor tadqiq qilingan. Unda erishilgan natija va xulosalar qoraqalpoq tili lingvopoetikasi bo'yicha nazariy bilimlarni takomillashtirishda muhim ilmiy manba bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ta'lim sohasida filologiy yo'nalishlarida lingvopoetika bo'yicha ma'ruzalar, maxsus kurslarni o'qitishda, badiiy asar tilini o'rganishda, shoira asarlari tilining izohli, frazeologik lug'atlarini tuzishda asosiy manba sifatida foydalaniladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Shoyira G.Davletova asarlari tilini lingvopoetik tadqiq qilish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

G.Davletovaning o'ziga xos poetik ijodi asosida qo'llanilgan metafora, metonimiya, sinekdoxa, o'xshatish kabi turlarining estetik ahamiyatini belgilashdagi xususiyatlari bilan bog'liq xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-maydagi 291-son Qaroriga hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Joqarg'i Kengashining Raisi tomonidan 2024-yil 31-yanvar kuni tasdiqlangan 01-12/15-27-sonli ish rejasiga muvofiq "Sahro bulbuli" mavzusidagi Respublika ko'rik-tanlovining tashkillashtirilishida foydalanilgan. (Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025-yil 20-yanvar 04/04-105-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur tadqiqot xulosalari shoirlar mahoratini oshirishda, yosh ijodkorlarning yetishib chiqishida, o'quvchi yoshlar, talabalar, badiiy adabiyotga qiziquvchi keng xalq ommasiga targ'ib etishda samarali foydalanilgan;

G.Davletova asarlaridagi fonetik troplar, leksik birliklar, badiiy tasvirlash vositalarining asarning estetik ahamiyatini belgilashdagi roli, poetik matnni yaratish imkoniyatlari, poetik individuallik tizimida shoira tomonidan til birliklarini qo'llash mahorati bilan bog'liq xulosalardan Qoraqalpog'iston telekanalining «Ota makon», «Oltin hudud», «Meros» ko'rsatuvlari hamda eshittirishlarining ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi teleradiokompaniyasining 2024-yil 7-avgustdagi 05-22/355-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu ko'rsatuv va eshittirishlar uchun tayyorlangan materiallarning mazmuni mukammalashgan, ilmiy dalilarga boy bo'lishi taminlangan;

shoira she'riyatida uslubiy-jihatdan o'ziga xos badiiy tasviriy vositalar, leksik, nutqiy sinonim va antonimlarning lingvopoetik vazifasi sifatida qo'llanilishi va shoyiraning lingvopoetik hususiyati sifatida foydalanish mahorati to'g'risidagi ilmiy-nazariy xulosalardan Qoraqalpog'iston Respublikasi yozuvchilar uyushmasi seminarlarida foydalanilgan (Qoraqalpog'iston Respublikasi yozuvchilar uyushmasi 2025-yil 29-yanvar, №8 dagi 01-02/03-132-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, shoyiraning qahramon obrazini yaratishdagi adabiy-badiiy mahoratining ochilishiga asos bo'lgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 14 ilmiy ish chop etilgan, shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola, jumladan, 5 tasi respublika, 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, uning asosiy mazmuni 144 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, o'rganilganlik darajasi bayon qilingan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, predmeti hamda ob'ekti, tadqiqot usullari belgilangan, ishning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchligi, nazariy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi bop «**Lingvopoetik tadqiqotlarning nazariy asoslari**» deb nomlanib, u uch fasldan iborat. «**Lingvopoetika – badiiy matnni lingvistik anglash usuli sifatida**» deb nomlangan birinchi faslida umuman, tilshunoslikda lingvopoetika sohasi bo'yicha har xil qarashlar ilmiy tahlil qilingan. Lingvopoetika lingvistika va poetika terminlarining birikmasidir. Badiiy so'z san'ati bilan shug'ullanadigan har qanday ijodkor tilning barcha imkoniyatlaridan samarali foydalana olishga o'rganish, so'z boyliklarini badiiy asarda amaliy ifodalay olishiga e'tibor berish –bu tilning muomaladagi vazifasini badiiy so'zga bezak bera olish imkoniyatiga ilmiy baho berish bilan barobar deb hisoblaymiz.

Soʻzning badiiy kuchi, insonning ruhiy olamiga taʼsiri, hatto uni oʻzgartira olish kuchini aniqlash masalasi qadim davrlardan oq insoniyatni qiziqtirgan. Jumladan, gʻarb mutafakkirlaridan biri Aristotel: «Poetik sanʼatning kelib chiqishiga ochiq-oydin ikki sabab boʻladi, ikkisi ham tabiiy. Birinchidan, gʻavdalantirish, oʻxshatish insonga bolalikdan xos boʻlgan xususiyat. Ikkinchidan, oʻxshashi tasvirlangan narsani dastlab koʻrmagan boʻlsa, oʻxshatishdan emas, balki bichim, boʻyoq yoki shunga oʻxshash boshqa bir narsadan zavqlanadi. Shunday ekan, oʻxshatish garmoniya va ritm kabi qadimdan oq insonlarning tabiatiga xos xususiyat. Odamlar tabiatiga koʻra oʻxshatishga qobiliyatli, ular buni kam-kamdan rivojlantirib borib, haqiqiy poeziyani yuzaga keltirgan»⁵. Badiiy soʻz asarda badiiy matnda jonlanadi. Soʻzni obrazli baholaganimizda badiiy matnning joni va qoni, uni harakatga keltirib, badiiyligini yuzaga chiqaradigan ruhi.

Til - bu badiiy adabiyotning tashqi qobigʻi, uning mazmunini anglatadigan asosiy material hisoblanadi. Lingvopoetika – badiiy asarni lingvistik tahlil qilish orqali poetik tilda badiiy soʻzning estetik vazifasini aniqlash deb baholash mumkin.

G.I Klimovskaya «Lingvopoetika» deb nomlangan oʻquv qoʻllanmasida bu ilm sohasining oʻziga xos xususiyatlarini, badiiy adabiy asarning estetik strukturasi ikki katta asosiy qismga ajratadi, jumladan:

1. Badiiy mazmun;
2. Badiiy shakl, deb koʻrsatadi.

Shuningdek, bugungi kunda badiiy asarning estetik stukturasi bir-biriga bogʻliq boʻlgan estetik qurilishining belgilaridan iborat ekanligi, birinchidan, mazmun; ikkinchidan, adabiy (obrazli shakl); uchinchidan, soʻzlashdagi badiiy shakl; toʻrtinchidan, tildagi shakl (til material) tashkil etadi»⁶ - deb koʻrsatadi.

Lingvopoetikaning bajaradigan vazifasiga koʻra badiiy adabiyotning tilini, yaʼni tilning poetikasini oʻrganishga bagʻishlangan yoʻnalish deb hisoblashimiz mumkin. Bu haqda V.Vinogradov:«...lingvopoetik tadqiqotning asosiy xususiyati badiiy adabiyotni va uning tilini ijodiy jarayonning xulosasi sifatida qarash, uning shakl va mazmunini tilshunoslik va adabiyotshunoslik konsepsiyalarini birlashtirishga intilish tendensiyasi»⁷ - deb taʼkidlaydi.

Lingvopoetikaning eng asosiy oʻziga xos xususiyati uning badiiy-estetik stereotipni nazarda tutishidir.

Shunday ekan, lingvopoetika sohasining predmeti badiiy matn bilan bogʻliq. Chunki, muallifning aytmoqchi boʻlgan fikrlari, uning badiiyligi, estetikligi, lingvopoetikasi badiiy matnning tuzilishi, maʼno-mazmunida oʻz aksini topadi.

Lingvopoetik tadqiqotlar lingvistik boshqa tadqiqotlar bilan chambarchas bogʻliq, uni alohida olib qaramasligimiz kerak. Shuning uchun ham, ilmiy manbalarda badiiy matnning lingvopoetik tahlil qilish, tadqiqotning quyidagi beshta alohida turini belgilab koʻrsatadi:

1. «Poetik tilda – milliy tildagi potensial maʼno badiiy maʼnoga, yaʼni yangi maʼnolarga aylanadi;
2. Amaliy tildan farq qilgan holda, poetik tilda barcha

⁵ Аристотель. Поэтика. – Т.: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1980. – Б. 12.

⁶ Климовская Г.И. Лингвопоэтика. Учебное пособие. – М.: ФЛИНТА, 2019. – С. 7.

⁷ Виноградов В.В. О теории художественной речи. – М.: Высшая школа, 1971. – С. 104.

elementlar estetik jihatdan tizimlashgan shaklga ega bo'ladi; 3. Poetik tilning yana bir spetsifik xususiyati – til elementining maksimal dolzarbligi bilan bog'liq. Amaliy tilning (amalda bo'lgan til – *Sh.Jolimbetova*) elementi uning ko'rinishi, tuzilishi bo'yicha stereotip ko'inishda, avtomat turda qabul qilish bilan uning aniq, tub ma'nosini, semantik o'rin almasishini, badiiy mazmunini anglash mumkin emas. 4. Poetik tilda birliklarning boshqa birliklar bilan munosabatga kirishishi, aralashish imkoniyati kengayib, valentiligi oshadi. 5. Poetik til doirasi kontekst va metalingvistika omillarini qamrab oladi, adabiy tilda anglashilmay qolgan ko'inishlar ham uning tarkibiga kiradi»⁸.

Birinchi bobning ikkinchi fasli «**Lingvopoetik tadqiqotlar tahlili**» deb nomlanadi.

Lingvopoetika sohasi XX asrning boshlaridayoq ko'pgina olimlarning diqqat-e'tiborini torta boshladi. Lingvopoetik tadqiqotlarda estetik go'zallik, badiiylik obrazlilikning asosi ekanligini anglab, bu haqda ingliz tilshunosligida S.Saporta quyidagicha fikr bildiradi: «...poetika – bu til, poetika bu til ham emas, u badiiy san'at, poetika badiiy san'at bilan tilning birikmasi»⁹.

Dunyo tilshunosligida lingvopoetika va uslubiyatga asos solgan olimlarning mana shu sohaning nazariyasi, metod va metodologiyasi, tadqiqot obyekti, predmeti haqida bu ikki ilm sohasining o'xshash va farqli jihatlari haqida so'z yuritilgan bir qator ilmiy ishlar yuzaga keldi. Jumladan, V.V.Vinogradov¹⁰, V.P.Grigoryev¹¹, V.M.Jirmunskiy¹², V.Ya.Zodornova¹³, R.Yakobson¹⁴ va boshqalarning ishlari mana shu sohadagi o'rganilayorgan ilmiy ishlar uchun manba vazifasini bajarishi shubhasiz. Masalan, rus tilshunosligida A.A.Lipgartning ishlari lingvopoetikaning nazariy masalalari, ayniqsa, uning metodlari, lingvopoetikaning o'rganilishiga bag'ishlangan. «Lingvopoetikaning asoslari» deb nomlangan o'quv qo'llanmasida tilning mazkur sohasi masalalarini tizimlashtirib, izchillikda katta uch bo'limga ajratib o'rganilgan. Ishning birinchi bo'limida lingvopoetika, lingvopoetik taqqoslash, lingvopoetik stratifikatsiya haqida keng ma'lumot beradi. Ikkinchi bo'limda lingvopoetika va lingvostilistika o'zaro taqqoslanib, lingvostilistikasiz lingvopoetika – bu filologik paradoksmi yoki tadqiqotdagi g'alizlikmi? - degan savol atrofida o'z ilmiy qarashlarini bildiradi. Uchinchi bo'lim

⁸ Абдыкеримова А.Э. Лингвистикалық поэтика. – Каракол: БМУ, 2008. – Б. 14.

⁹ Сапорта С. Применение лингвистики в изучении поэтического языка // Новое в зарубежной лингвистике. Вып IX. – М., 1980.

¹⁰ Виноградов В.В. О языке художественной литературы. – М.: Политиздат, 1959; О'sha muallif. Стилистика. Теория поэтической речи. Поэтика. – М.: АН СССР, 1963; О'sha muallif. О теории художественной речи. – М.: Высшая школа, 1971; О'sha muallif. Избранные труды. Поэтика русской литературы. – М.: Наука, 1976.

¹¹ Григорьев В.П. О единицах художественной речи // Поэтика и стилистика русской литературы. – Л.: Наука, 1971. – С. 217-229; О'sha muallif. О некоторых проблемах лингвистической поэтики // Теория поэтической речи и поэтическая лексикография. – Щадринск, 1971; О'sha muallif. Поэтика и слова. – М.: Наука, 1979.

¹² Жирмунский В.М. Теория стиха. – Л.: Советский писатель, 1975; Усы автор. Теория литературы. Поэтика. Стилистика. – Л.: Наука, 1977.

¹³ Задорнова В.Я. Словесно-художественное произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Автореф. дис. ... д-ра. филол. наук. – М., 1992.

¹⁴ Якобсон Р. Работы по поэтике. – М.: Прогресс, 1987.

«Lingvopoetika va adabiyotshunoslik» deb nomlanib, lingvopoetika va adabiyotshunoslik fani bilan bog‘liq masalalar haqida so‘z yuritilgan¹⁵.

G.I. Klimovskaya «Lingvopoetika» deb nomlangan o‘quv qo‘llanmasida badiiy adabiy asarni san‘atning spesifik turi, madaniyatning fenomeni sifatida qaraydi. Qo‘llanmada muallif lingvopoetika bo‘yicha dualizm, estetik fenomen, artema, asarning adabiy (obrazli) shaklining materiali, asarning og‘zaki nutqdagi badiiy shakli, badiiy adabiy asarning to‘rt bo‘limidan iborat bo‘lgan estetik strukturasi, artemaning qurilishi, estetik vazifalari, tillari, belletrizm va boshqa terminlarni ilmiy muomalaga kiritadi¹⁶.

V.Ya.Zadornova doktorlik dissertatsiyasida lingvopoetik tadqiqot metodlariga alohida e‘tibor beradi: «badiiy matnning lingvopoetik tahliliga e‘tibor beradigan bo‘lsak, uslubiy xususiyatlarni aniqlash emas, balki estetik ta’sirni aniqlashtirishga yo‘naltirilgan. Lingvopoetikaning predmeti – bu yozuvchi o‘zi yaratgan badiiy asarida estetik ta’sir o‘tkazishini ta’minlaydigan va g‘oyaviy badiiylik birikishini yuzaga chiqaradigan yordamlashadigan til vositalarining yig‘indisi»¹⁷ deb aytadi. Shunday ekan, badiiy asarda qo‘llanilgan til vositalari faqat uslubiy maqsadlarda qo‘llanilmasdan, lingvopoetik tahlil metodlariga uning estetik badiiy maqsadlari ustun keladi. O‘zbek tilshunosligidagi lingvopoetik tadqiqotlarda ko‘pginasi poeziya janridagi badiiy matnlarni tahlil qilishga bag‘ishlangan. V.Umirqulov¹⁸, M.Yuldashevlarining¹⁹ ishlarida badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish haqida nazariy fikrlar bildirilsa, folklorshunoslikdagi lingvopoetika masalalari M.Yakubbekova²⁰, G.Jumanazarova²¹, D.Andaniyazova²², D.Turdalievlar²³ va boshqalar, poeziya janridagi badiiy asarlarning lingvopoetikasi I.Mirzaev²⁴, G.Muxammadjanova²⁵, D.Shodiyeva,²⁶ S.Umirova²⁷, Sh.Toshxo‘jayeva²⁸,

¹⁵ Липгарт А.А. Основы лингвопоэтики. – М.: Стереотип, 2021. – С. 1-166.

¹⁶ Климовская Г.И. Лингвопоэтика. Учебное пособие. – М.: ФЛИНТА, 2019.

¹⁷ Задорнова В.Я. Словесно-художественного произведение на разных языках как предмет лингвопоэтического исследования: Дис. ... д-ра. филол. наук. – М., 1992.

¹⁸ Умиркулов Б. Поэтик нутқ лексикаси. – Т.: Фан, 1990. – 110 с.

¹⁹ Ёулдашев М. Бадий матн лингвопоэтикаси. – Т.: Фан, 2008.

²⁰ Якуббекова М. Ўзбек халқ кўшиқларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. д-ри. ... дис. – Т., 2005.

²¹ Жуманазарова Г. Ширин ва шакар достонининг луғавий ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т., 2008; Усы автор. Фозил Ёулдош ўғли достонлари тилининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. д-ри. (DSc)... дис. автореф. – Т., 2017.

²² Анданиязова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикаси: Филол. фан. д-ри. ... дис. автореф. – Т., 2017.

²³ Турдалиева Д. Ўзбек халқ мақолларининг лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. д-ри. (PhD). ... дис. – Қарши, 2019.

²⁴ Мирзаев И. Проблемы лингвопоэтической интерпретации стихотворного текста: Автореф. дис. ... д-ра. филол. наук. – Т., 1992.

²⁵ Мухаммеджанова Г. 80-йиллар охири 90-йиллар бошлари ўзбек шеърятининг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фан. ном. ... дис. – Т., 2004.

²⁶ Шодиева Д.Ш. Мухаммад Юсуф шеърятининг лингвопоэтикаси: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т., 2007.

²⁷ Умирова С. Ўзбек шеърятининг лингвистик воситалар ва поэтик индивидуаллик (Усмон Азим шеърятининг мисолида): Филол. фан. фалс. д-ри. (PhD). ... дис. – Самарқанд, 2019.

²⁸ Тошхўжаева Ш. Эркин Аъзам асарлари лингвопоэтикаси: Филол. фан. фалс. д-ри. (PhD). ... дис. автореф. – Т., 2017.

D.Shodmonova²⁹ badiiy matn va badiiy tasviriy vositalarning lingvopoetikasi Z.B.Umurqulov³⁰, G.T.Yaxshiyeva³¹ va boshqalarning ishlarini keltirish mumkin.

Qozoq tilshunosligida ham lingvopoetik taqiqotlar bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Masalan, S.Yerjanova qozoq xalqining taniqli shoiri Sag'i Jienbaevning poeziyasini poetik jihatdan tahlil qiladi³². Qozoq tilidagi so'z va uning estetik vazifasi haqida D.Sizdiqovanning³³ badiiy matn, diskurs, tilga doir va tilga oid bo'lmagan obyektlar, pragmalingsvisika va uning uslubiy bir yo'nalishi ekanligi, lingvopoetika, til belgilarining kognitivli-uslubiy, estetik-uslubiy, kommunikativlik-pragmatiklik vazifalari haqida D.A.Alkebaevaning ishini ta'kidlash joiz³⁴. Qirg'iz tilshunosligida ham lingvopoetika yo'nalishida bir qator tadqiqotlar olib borilib, A.E.Abdekimova poetik sintaksis, poetik semantikaning bir qatar masalalarini tahlil qilishga bag'ishlangan ishlariga izoh berildi³⁵.

Qoraqalpoq tilshunosligida lingvopoetika hali yosh soha bo'lib, so'nggi yillarda mana shu yo'nalishda bir qator tadqiqotlar olib borildi.

Sh.N.Abdinazimovning «Lingvopoetika» o'quv qo'llanmasida badiiy matnni lingvopoetik o'rganishning nazariy masalalari, ayniqsa, poetik fonetika, morfologiya, sintaksis, semantika, matn lingvopoetikasi, uning asosiy birliklari aytilgan³⁶.

So'nggi yillarda qoraqalpoq tilshunosligida badiiy asarlar lingvopoetik yo'nalishda tadqiq qilinmoqda. D.K.Yerjanova qoraqalpoq xalqining taniqli shoiri I.Yusupov poemalarini³⁷, Z.M.Qazimbetova shoir J.Izbasqanov asarlarini, shundan jami 468 she'ri va besh poemasini lingvopoetik tahlilga tortgan. Shuningdek, shoirning asarlaridagi badiiy tasviriy vositalarning poetik sintaksisi har tomonlama tahlil qilingan³⁸. A.P.Nasirovanning tadqiqoti qoraqalpoq aytishuvlarining tiliga bag'ishlanadi. Tadqiqotda qoraqalpoq xalq aytishuvlarining leksik va grammatik poetikasi, poetik semantikasida badiiy vositalarning estetik-obrazli qo'llanilish vazifalari tahlil qilingan³⁹.

J.J.Buxarbaevanning tadqiqoti shoir To'lepbergen Matmuratov asarlari tilining lingvopoetikasiga bag'ishlanib, ko'proq poetik sintaksis uning badiiy-estetik vazifasib talqin qilingan⁴⁰.

²⁹ Шодмонова Д. Абдулла Орипов шеърятининг лингвопоэтик хусусиятлари (метафоралар мисолида): Филол. фан. фалс.д-ри. (PhD). ... дис. автореф. – Қарши, 2019.

³⁰ Умирқулов З.Б Бадий матнда қиёс ва унинг лингвопоэтик қиммати: Филол. фан. фалс. д-ри. (PhD). ... дис. автореф. – Қарши, 2020. – 51 б.

³¹ Яхшиева Г.Т. Ўзбек тилида фонографик услубий воситалар: Филол. фан. ном. ... дис. автореф. – Т., 1997.

³² Ержанова С. Саги Жиенбаев поэзиясынын поэтикасы. – Алматы: Дарын, 2002.

³³ Сыздыкова Р. Сөздер сөйлейді. – Алматы: Санат, 1994. – 97 б.

³⁴ Әлкебаева Д.А. Қазақ тілінің прагматилистикасы, - Алматы: Зыят-Персс, 2007. – 244 б.

³⁵ Абдекеримова А.Э. Лингвистикалық поэтика. – Каракол: БМУ, 2008. – 2995 б.

³⁶ Абдиназимов Ш. Лингвопоэтика. – Т.: Yoshlar nashriyoti uyi, 2020. – 152 б.

³⁷ Ержанова Д.К. Ибрайым Юсупов поэмаларининг лингвопоэтик таҳлили: Филол. фан. фалс. д-ри (PhD). ... дис. афтореф. – Нукус, 2021. – 54 б.

³⁸ Қазимбетова З.М. Ж.Избасқанов шығармаларының лингвопоэтикалық анализи: Филол. илим. филос. д-ри. (PhD). ... дис. – Нөкис, 2022. – 145 б.

³⁹ Nasirova A.P Qoraqalpaq xalq aytishuvlarinig lingvopoetik tahlili: fFol. fan. filol. d-ti (PhD). ... dis. avtoref. – Nukus. 2023. – 48 b.

⁴⁰ Buxarbaeva J.J. T.Matmuratov asarlarining lingvopoetikasi: Filol. fan. fals. d-ri. (PhD). ... dis. aftoref. – Nukus, 2024. – 55 b.

Birinchi bobning uchinchi fasli «**G.Davletova asarlarida poetik individuallik**» deb nomlanadi.

Lingvopoetika – bu qoraqalpoq tilshunosligida yangi yo‘nalsih. Unda shoir yoki yozuvchi har qanday kitobxonga so‘z orqali tilning badiiy tasviriy vositalari orqali estetik ta’sir qilish kuchiga ko‘proq ahamiyat beradi. G.Davletova qoraqalpoq xalqining taniqli shoirasi. Uning she’riyatining til xususiyatlariga e’tibor beradigan bo‘lsak, badiiylik, obrazlilik, estetik jihatdan jozibadorligi kabi xususiyatlari bilan poetik individuallikka ega ekanligining guvohi bo‘lamiz. Shoira XX asrning 90-yillaridan boshlab vatanparvarlik, sadoqat, muhabbat kabi yuksak insoniy fazilatlarini she’riy satrlari orqali kuylaydi, ular tilining o‘tkirliги bilan ajralib turadi.

G.Davletovanning bir qator she’riy to‘plamlari: «Seniń dardıń menen jasayman hayal! (Sening darding bilan yashayman ayol!)» (2001-y.), o‘zbek tilida «Ayol ishqı» (2007-y.), «Qiz taxtim» (2009-y.), «Gúzgi tolǵanıslar (Kuzgi to‘lg‘anishlar)» (2012-j.), «Tumar qız (Tumor qız)» (2014-y.), «Gúlistan (Guliston)» (2021-y.), «Házireti hayal (Hazrati ayol)» (2022-y.), «Dosliq gúsháni (Do‘stlik gulshani)» (2024-y.), «Ona yer-Ona» o‘zbek tilida (2024-y.), «Dáwır qaharmanları (Davır qahramonlari)» (2024-y.) chop etildi. Poetik asarlari bilan birga bir qator: Ajiniyoz she’riyatiga bag‘ishlangan monografik ilmiy ishlari ham e’lon qilindi.

G.Davletovanning poetik asarlarining chuqur mazmundorligi, g‘oyasi, so‘z qo‘llash mahorati mavzularida joriy gazeta va ilmiy-ommabop jurnallarda H.Ayimbetov, K.Allambergenov, G.Shamuratova, Q.Orazimbetov, Sh.Usnatdinov, H.O‘temuratova va boshqalarning muallifligida yigirmadan ziyod maqolalar e’lon qilishdi. Shoir she’riyatining badiiyliги, til birliklaridan obrazli foydalana olishi orqali boshqa shoirlardan ajralib turadi.

Q.Orazimbetov: «Shoira G.Davletova qoraqalpoq adabiyotida o‘z yo‘liga, o‘z ovozigaga ega bo‘lishga intilib kelayotgan, shoirlik yo‘lni taqdirim deb bilgan iqtidor egasi. Shoira haqiqatni kuylashning badiiy usullarini o‘zlashtirib olgan, uni yalang‘och holda aytmaydi, balki turli ishoralar, badiiy bo‘yoqlar, obrazlar yordamida to‘qiydi. Uning she’rlari kitobxonning estetik tuyg‘ularini uyg‘otib, ruhiy kuch bag‘ishlaydi»⁴¹. Bu fikrlardan badiiy adabiyotning estetik ta’sir kuchining doim til birliklari orqali yuzaga kelishini anglaymiz.

Ikkinchi bob «**G.Davletova asarlarining poetik semantikasi**» deb nomlanib, u ikki fasldan iborat. Birinchi fasl «**Til birliklarining shakl va ma’nosi bo‘yicha lingvopoetik tahlili**» deb nomlanib, u uch qismdan tashkil topgan. «**Sinonimlarning lingvopoetik tahlili**» dep nomlangan birinchi qismida sinonimlar tahlil qilingan. Har qanday tilning lug‘at boyligi, badiiyliги uning lug‘at boyligida, ya’ni sinonimlarida namoyon bo‘ladi.

Ko‘p ma’nodlilik asosida paydo bo‘lgan sinonimlar: Bunda fikrning mazmuni va so‘zlarning takrorlanmasligiga, rang-barangligiga erishilgan.

Abiray, mártebe, dańq sizdi quwar («Báhárim meniń»)

⁴¹ Оразымбетов Қ. Көркем ҳақыйқатлық айнасы (Шайыра Г.Дәўлетованың дәретіўшилигине штрихлар) // Еркин Қарақалпақстан. – Нөкис, 2016, 23-декабрь.

Bereket, ırs, dawlet alip kelgeyseñ («Nawrız kelgende»).

Tovush evfoniyasi orqali anglashiladigan sinonimlar: unli va undosh yoki undosh fonemalarning jarangli-jarangsiz, unlilarning o'xshashligiga e'tibor berilgan ma'nodosh so'zlarning har birining birinchi tovushining o'xshash tovushlar bilan uyg'unlashib kelish holatlari uchraydi.

Ilahiy muhabbat urqani óngen,

Muqaddes, mardana ol hayal dermen. («Mardana hayal»).

Aynanayin kóziñnen, *Shiyrin-sheker* sóziñnen («Qumay kózdi súyemen»).

B. Yusupova o'z tadqiqotida «qoraqalpoq tilida bir xil yoki o'xshash undosh tovushlar alliteratsiya frazeologizmlarni paydo qilib, ular evfonik frazeologizmlarning katta qismini hosil qiladi»⁴², - deb ko'rsatadi. Demak, tovush evfoniyasi tilimizda faqat frazeologizm va naql-maqollardagina uchramasdan, sinonimik qatorlarda ham muallif tomonidan qurilishi chiroy-husn (ch-h), muqaddas-mardona (m-m), shirin-shakar(sh-sh) shaklida berilishi – bu bir tomondan estetik badiiylikni paydo qilsa, ikkinchidan shoirona individuallik deb hisoblaymiz.

Haq, yaratqan ózgeden joq tiregim («Tırnalar qaytqanda», 67-bet).

Misollardagi *haq, yaratqan* so'zlari - egam, rabbim, parvardigor, olloh, xudo va h.k. sinonimik qatorlarga ega bo'lib, arab tilidan kirgan so'zlar bo'lib, asar tilining boyligini ko'rsatadi.

Frazeologizmlar orqali berilgan sinonimlar: bir qator sinonimlar frazeologizmlar orqali ham anglashilib, tayyor shakldagi birliklardan badiiy matnda har xil maqsadlarda foydalana olgan.

Aq juwıp, ariwlap alis-jaqiniñ,

Shiğarar sapargá eñse iyilip («Kewil bar ma qarekeñniñ kewlindey?!»)

Kontekst sinonimlar. Qandaydir matn tarkibida muallifning o'z fikri, so'zdan foydalanish imkoniyatiga qarab faqat matnlarda ma'nolari yaqin bo'ladi.

Qız balaniñ ishki *dárti, hawiri,*

Nalishlari shiylarinde qalğan ba? («Qara úy»).

Dard, nolish bir-biri bilan sinonim bo'lsa ham, qayg'u ma'nosi boshqa, lekin yuqorida ular matnda o'zaro sinonimik hosil qilgan.

Kakofemizmik sinonimlar. Shoira asarlari matnida bir qator qo'pol ma'no anglatadigan so'zlar o'zaro sinonimlar bo'lib, poetik ma'no yanada kuchliroq seziladi.

Qız-júwanniñ kúni qarap «*shumshiq*»qa,

Isi túsip *niyeti pas, gırjiqqa,*

Ġunan berip saqlap qaldi FZOdan,

Túrtki qilmay, kewli súymes tirjiqqa(«Qalbimdegi estelik»).

Urush davrida yosh qizlarga, kelinchaklarga past nazar bilan qaragan *chumchuq* (juda kichik, nimjon qush), *qaysarga* (yuzlari beso'naqay bo'lib qolgan xunuk odam) deb, qora niyatli erkak kishi obrazini tasvirlab, o'tkir emotsional ma'no anglatmoqda.

⁴² Юсупова Б.Т. Қарақалпақ тилиндеги фразеологизмлердің фоностилистикалық анализи: Филол. илим. д-ры. (DSc). ... дис. – Нөкис, 2022. – Б. 81.

Sinonimik qatorlarni keltirish orqali matnda lingvopoetik badiiylikka erishilgan.

Ikkinchi qism «**Antonimlarning lingvopoetik tahlili**»ga bag‘ishlangan. Qarama-qarshi ma’noli so‘zlarni matnda keltirish orqali fikr-xayolning ta’sirchanligi, aniqligi haqida so‘z yuritilgan. A.Najimovning to‘g‘ri ta’kidlaganidek: «Antonimlar gap ichida ketma-ket qo‘llanilganda, ular orasidagi qarama-qarshilik holati bizga ta’sirliroq seziladi»⁴³.

Qoraqalpoq tilida antiteza yasashda *ot* so‘z turkumlari kam qo‘llaniladi. *Shúkirim kóp, nalishim* joq Allağa,

Analiq taxtiniń jemisin úzdim. («Gúzgi tolğanıslar», 3-bet).

Sifat antitezalar samarali qo‘llanilgan:

Zahar yańli *shiyrin* sózi basqanıń («Shópti qalı kórme»).

Sorastirip *jaqın* menen *jatimdi* («Nuraniy ata-analarğa»).

G.Davletova asarlarida *ravishlardan* yasalgan antitezalarni ko‘plab uchratamiz. Úrılar shiğar *solimnan*, Majnúnler shiğar *ońimnan* («Jeńgejan»).

Antitezalar *fe’llardan* ham yasaladi.

Buzar, dúzer keler bir kún karine («Enejanlarıma»).

Jan *alıp*, jan *bergen* aziz atalar («Nuraniy ata-onalarğa»).

«**Omonimlarning lingvopoetik tahlili**» mavzusidagi uchinchi qismda omonimlarda bir xil shakldagi necha so‘z taqqoslansa ham, har birining alohida anglatadigan ma’nosi yashiringan.

1. Qırğa qańtarıwli qayiq *janında*,

Sol altin dawranin esleydi atam («Qırğa qańtarıwli qayiq qasında»).

2. *Jan* dúnyam lawladi, aytqan salemim,

Jaz ótpey jawradı ishki álemim («Qaylargá kettiń»).

3. *Arı, janı*, qanı ketken qarısıp («Watan degende»).

Misollardagi joni so‘zi uch xil ma’noda: 1. Yon tarafi, yonida; 2- odamning ichki olami, qalbi; 3- ruhi degan ma’nolarni anglatib omonimik holat yuzaga keladi. Qiz bolaning baxtli turmushi, ayollik baxtni his qilishi kabi tushunchalar *baxt* so‘zi bilan birga *bog‘* shaklida omonimlarni hosil qilgan.

Omonimlar shoirning so‘z tanlash va qo‘llash mahoratini ko‘rsatadi:

Báhár keldi *bag‘da* búlbil sayramas («Jáne báhárr keldi»). *Bagı* jansa sháwketli bay qala deb («Namıs bayrağı»).

Ikkinchi bobning ikkinchi fasli «**Troplarning lingvopoetik tahlili**» deb nomlanadi. Ushbu fasl bob to‘rt qismdan iborat bo‘lib, «**Metaforalarning lingvopoetik tahlili**» masalasiga bag‘ishlangan birinchi qismida metaforalar keng tahlil qilindi.

1. *Tabiat hodisalari atamalari bilan bog‘liq metaforalar*. Xalq orasida uchraydigan olamni, hayotni, turmushni, maktabga, daryoga, oqinga va h.k. o‘xshatish holatlari:

Ómir – *sağım*, jilt eter qas-qağımda («Gúzgi tolğanıslar»).

Ómir – *ağıs*, há degenshe ótedi («Hazirginiń balaları»).

⁴³ Нажимов А. Булақ көзлери // Әмиўдәръя. – Нөкис, 1977. - №9. – Б. 101.

2. *Predmet tushunchalarning mavhum ma'noga ko'chishi bilan hosil bo'lgan metaforalar:* *Turmush* – *saboq*, to'g'ri ilib olganmiz («Qanotlab onamning armonlarida»). *Turmush* – *yaylov*, changida qolgandan so'ng («Zo'r bo'ladi o'z qadrini bilganlar»).

Turmush shoir tomonidan darsga, otlarning uzoq masofaga chopadigan maydoni bo'lgan yaylovga, sinov – imtihonga, o'tli olovga o'xshatadi.

3. *Tarkibida zoonimlar qatnashgan metaforalar:* Shoir ijodiyotida, inson, uning xulq-atvori, atrofdagilar bilan munosabati, ish-harakatlarini sifatlashda har xil hayvon va qush atamalari yordamida yaratilgan metaforalardan samarali foydalangan.

Jollarında saǵal, túlki jortadı («Tırnalar qaytqanda»); Bunda *tulki*, *shoqol* – ayyor, mug'ombir insonlar ma'nosida qo'llanilgan.

4. *O'simlik atamalari qatnashgan metaforalar:* Shoir G.Davletova birgina ko'ngil so'zini har xil «muqomga do'ndirgan». Oshiqning ko'nglini bog'ga, chamanga, gulga o'xshatish holatlari uchraydi.

Kewil baǵlarima keldiń de kettiń («Qaylarga kettiń»).

Nálsheleriń erteń *nárwan* boladi, Uliń-qızıń arqa súyer tawlarıń («Dáwranı bolǵay-da, dúrdana hayal»).

Odam ko'nglini, armonlarini chiroyli bog'ga o'xshatishi, odam bolasini gulga, voyaga yetish tushunchalarini daraxtlarning avvalo nihol, so'ngra shu nihol o'sib, katta daraxtga aylanish harakatini odamning bir butun umri tushunchasiga o'xshatadi.

5. *Jamlovchi tushunchani anglatadigan metaforalar:*

Turmus báygisiniń aylawlarında («Gúzgi tolǵanıslar»);

Turmus kemesiniń tartıp saldawın. («Háwjar-ay»).

Turmush va taqdir tushunchasini otlarning bellashuvi-poygaga, yo'lakka va kemaga o'xshatishi to'satdan emas, mana shu tushunchalarga o'xshashligida.

6. *Predmet atamalari asosida yaratilgan metaforalar:* ko'pgina metaforalar predmet atamalarining ikkinchi tushunchasiga o'xshatishi natijasida hosil bo'lgan metaforalar hisoblanadi.

Ashsam sırǵa tolı kewil sandıǵıń («Sahra maralı»). Misolda insonning ko'ngli sandiqqa o'xshatilib, uning ichida har xil sirlar yashiringan, insonning hayoti davomidagi barcha quvonchi va qayg'usi mana shu «sandiq»da joylashganligi badiiylik bilan ta'riflangan.

7. *Odam psixologiyasi, tuyg'ulariga doir metaforalar:* Júziń shekeleydi *kewil kirinen* («Rubayilar»).

Shunday qilib, G.Davletova ijodida ko'pincha predmet atamalari bilan birga unga o'xshagan mavhum tushunchaga ega so'zlar birikib metaforizatsiyalanib, o'quvchiga estetik zavq berib, asar badiiyligini yanada oshirishga xizmat qilgan.

«**O'xshatishlarning lingvopoetik tahlili**» deb nomlangan ikkinchi qismda xalq og'zaki ijodida ham, yozma adabiyotda ham eng ko'p qo'llaniladigan badiiy tasviriy vositalardan biri o'xshatishlarning shoir she'riyatida lingvopoetik qo'llanishi haqida so'z yuritilgan. G.Davletova asarlarida erkin o'xshatishlar ham, umumxalq turg'un o'xshatishlar ham uchraydi.

1) *O‘xshatishlarning morfologik yo‘l bilan berilishi*: Ol hám argúmaqtaý zuwlap baratır («Ómiri men ashıqlardıy súyemen»).

Arg‘umoq - «asl zotli, chopqir ot, juyrik, otlarga berilgan umumiy nomi».(QTTS.I t, 169-b). Qoraqalpoq tili izohli lug‘atida keltirilganidek, inson umrini tez chopadigan, tez harakatlanadigan chopqir arg‘umoq otga o‘xshatib ko‘rsatilgan.

2) *o‘xshatishlarning sintaktik yo‘l bilan anglatilishi*: O‘xshatishlar xohlagan badiiy asar tilida har xil yo‘llar bilan berilib, eng avvalo, mana shu asar tilining emotsional-ekspressivligini ta‘minlaydi. P.Najimov: «O‘xshatish ma‘nosini bildiradigan elementlar boshqa bir ma‘noli so‘zlarga birikib kelib, sintaktik model yaratib keladi. Shuning uchun ham ularni *o‘xshatish tuzuvchilar* deb ataymiz»⁴⁴, - deb keltiradi.

Waqt -dárya, misli tulpar shağında («Gúzgi tolğanıslar»)

3) *o‘xshatishlarning morfologik-sintaktik yo‘l bilan anglatilishi*. Bunday o‘xshatishlarda obrazlilik, emotsionallik ular yakka holda anglatgan o‘xshatishlarga qiyoslaganda biroz ustun bo‘lib keladi»⁴⁵.

Hámmesi de bir qozınıń túgindey,

Misali bir shańaraqtıń júgindey. («Qálbimdegi estelik»).

Berilgan she‘r qatorlarida urush vaqtida oilalarning erkaklari urushga ketib, nobud bo‘lishi, uyida qolgan boshqa odamlarning, qo‘shnilar, hamqishloqlarining hamjihatligini tasvirlashda *bir qo‘zining tuki* va *bir oilaning yukidek* deb, -dek grammatik shakli bilan birga *masalan*, modal so‘z bir fikrning ichida qator qo‘llanishi bilan ma‘lum konstruksiya tuzib, shoir yakka mualliflik o‘xshatish satrlarini yaratgan.

4) *o‘xshatishlarning leksik-grammatik usull bilan tuzilishi*:

Ming chaqirsam qo‘nmas *oltin qush bo‘lib*,

Qalbinda cho‘g‘ bo‘lib yonib turarsan («Sog‘intirib turarsan»)

Bol + o‘xshab strukturasida kelib, oltin qush – barchaga qo‘navermaydigan pirli afsonaviy qush tushunilib, qiz bolani, o‘z suyuklisini qo‘l yetmaydigan oltin qushga o‘xshatadi, ikkinchidan mana shu oltin qush qiyofasi yigitning ko‘nglida olov, cho‘g‘ bo‘lib turgani nazarda tutilgan.

5) *o‘xshatishlarning intonatsiya orqali anglatilishi*:

Kúyew balam- óz balam dep qamshılap.. («Beykeshimniń aytqanı»)

Folklor, muallifning shaxsiy uslubiga xos individual o‘xshatishlarning mavjudligi estetik qiymatini belgilaydi.

Faslning «**Metonimiyalarning lingvopoetik tahlili**» mavzusidagi qismida uning qandaydir predmetni bevosita o‘z nomi bilan atamay, boshqacha, qayta nomlash orqali so‘zga ko‘chma ma‘no va badiiy vazifasi haqida so‘z yuritilgan.

1. Konkret predmet ma‘nosi shu predmetga o‘xshash bo‘lgan ma‘noga ko‘chirilgan. Bala-shağam deyseń, miń san mashqalań,

«*Ala qap*»tı arqalağan jas janan («Házireti hayal»).

⁴⁴ Нажимов П.А. Қарақалпақ тилинде теңеўлер. – Нөкис: Қарақалпақстан, 2014. – Б. 15.

⁴⁵ Sonda. – Б. 39.

Odatda, erkak kishi uylanishi bilan bo‘yniga oila, ro‘zg‘or tashvishi, muammosi tushdi degan ma‘noda «bo‘yniga ola qop tushdi» iborasi ishlatiladi. Lekin misolda u erkak kishiga emas, balki ayol kishiga qarata qo‘llanilib, oilani boqish maqsadida ko‘pgina xotin-qizlarning chet ellarga ishlashga ketishi, ola qoplarni orqalashi – bu turmushdagi real voqealar. Shoir mana shu ola qop birikmasini ikki ma‘noda: 1. Biror narsa solib ko‘tarishga bag‘ishlangan buyum; 2. Bo‘yinga ola qopning tushishi – oilani boqish tashvishi kabi mazmunni mana shu birikmaga yashirish yo‘li bilan tasvirlagan.

2. *Predmet orqali insonning har xil xususiyat, belgilari anglatilishi* (Sizdi oqisam barliq suliw sirgalar, Jigitlerdi Májnún qilip ketkeney. («Sizdi oqisam»);

3. *Inson ma‘nosini bildiradigan so‘zlar uning fazilatlariga, ogr‘iga xos belgilariga o‘xshatilib qayta nomlangan:* («Urilar shig‘ar solimnan, Májnúnler shig‘ar o‘imnan. («Jengejan»));

4. *Hayvon va shunga doir belgilar narsa ma‘nosida qayta nomlangan:* (Aylanip artqa qarama, Jorg‘alar júrsin arada. («Arpa ishinde...»);

5. *Xalq orasida botir, yoki bosqa fazilatlar bilan tanilgan rivoyat, ertak h.k. qahramonlarning o‘xshash belgilariga qarab qayta nomlanishi orqali metonimik vazifada kelgan* (*Qaraqalpaqtin‘ nağız Robin Gudi, Shaqmaq shağar jigit bolğan Shax-Aman.*(«Shaxaman»)

